



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG‘I

2025 y. “ 29 ” sentabr

№ 01-10/211

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-sentabrdagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–163-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-sentabrdagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–163-son Farmonida (keyingi o‘rinlarda – Farmon) belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Farmonga muvofiq quyidagilar:

yoshlar muammolari bilan individual va manzilli ishlash orqali yoshlar yetakchilari faoliyati samaradorligini oshirish;

yoshlarning kasbiy qiziqishlarini barvaqt aniqlash orqali mehnat bozoriga raqobatbardosh kadr sifatida kirib borishini ta‘minlash;

yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish orqali ular ongiga turli salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi g‘oyaviy tahdidlarga mahalla darajasida qarshi kurashish;

yoshlarga oid ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va doimiy ravishda yangilab borish jarayonlarini raqamlashtirish orqali yoshlarning ijtimoiy ahvoli haqidagi ma‘lumotlar bazasini shakllantirishga jalb etiladigan mehnat resurslari samaradorligini oshirish mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadlari etib belgilanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmon ijrosi yuzasidan Yoshlar ishlari agentligining nazorat rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yoshlar ishlari agentligining:

a) barcha tarkibiy bo‘linma rahbarlariga Farmonda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ijro etilishini ta‘minlash;

b) Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limiga:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari boshliqlari bilan birgalikda Farmonda belgilangan maqsad va vazifalar mazmun-mohiyatini mahalladagi yoshlar yetakchilariga tushuntirish ishlarini tashkil etish;

Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (S.Xamdamov) bilan birgalikda yoshlar yetakchilarni ularning vazifalariga kirmaydigan ishlarga jalb etilmasligini qat'iy nazoratga olish va bu haqda Agentlik rahbariyatiga ma'lumot kiritib borish vazifalari yuklansin.

4. Yoshlar ishlari agentligi direktorining ayrim buyruqlariga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktorining o'rinbosari A.Muminov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



A. Sa'dullayev

Yoshlar ishlari agentligining
2025-yil "29" sentabrdagi 01-10/211 -son buyrug'iga
1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-sentabrdagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PF-163-son Farmoni ijrosi yuzasidan Yoshlar ishlari agentligining NAZORAT REJASI

| T/r | Amalga oshiriladigan tadbirlar | Bajarish muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|------------|--|-------------------------|--|
| 1. | 2-band. Umummilliy rivojlanish maqsadlariga erishishda yoshlar salohiyatidan unumli foydalanish mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimining ustuvor vazifasi etib belgilansin. Bunda "Ulkan maqsadlar, samarali mehnat, oqilona turmush" g'oyasi asosida yoshlarda ulkan marralarni zabt etishda o'ziga bo'lgan ishonch va iroda shakllantiriladi, bilim va intizom bilan mehnat qilish ko'nikmalari kuchaytiriladi, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzi va o'z axloqi bilan boshqalarga o'rnak bo'lish kabi hayotiy qadriyatlar ommalashtiriladi. | Doimiy | Direktor o'rinbosari A. Muminov, Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limi N.Shodiyev |
| 2. | Farmonga muvofiq "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" elektron shaklda o'quv-qo'llanma tayyorlash va mahallasiga yoshlar yetakchilariga yetkazish. | 10.10.2025 | Direktor o'rinbosari A. Muminov, Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limi N.Shodiyev |
| 3. | 4-band. Farmonning 4-bandiga asosan "Mahalla yettiligi" va ta'lim muassasalari o'rtasida yoshlar, jumladan, umumta'lim maktablarining bitiruvchi sinf o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha hamkorlik qilish tizimini joriy etish bo'yicha mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda qo'shma qaror loyihasini tayyorlash. | 10.10.2025 | Direktorning birinchi o'rinbosari D. Kattaxanova, Direktor o'rinbosari A. Muminov, Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limi N.Shodiyev, tarkibiy bo'linmalar Z. Ataxanov, D. Azizova, M. Amreyeva |

| | | | |
|----|--|------------|---|
| 4. | <p>5-band. “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalari negizida quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lgan “Yoshlar yagona elektron platformasi” axborot tizimini (keyingi o‘rinlarda – Yoshlar yagona elektron platformasi) yaratish:</p> <p>(a) yoshlarning demografik va ijtimoiy holati, bandligi, ta’lim olishiga oid ma’lumotlar asosida “Yoshlar balansi”ni shakllantirish;</p> <p>(b) yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini baholash va uning natijalarini aniqlash;</p> <p>(d) yoshlarning qiziqishlarini aniqlash bo‘yicha sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, uning natijalarini avtomatik tahlil qilish;</p> <p>(e) yoshlarga oid mavjud imtiyozlar, preferensiyalar va imkoniyatlar to‘g‘risida ma’lumot berish;</p> <p>(f) shaxsga doir ma’lumotlar bo‘yicha amalga oshirilgan so‘rovlarning raqamli izlarini saqlash.</p> | 01.12.2025 | <p>Direktor o‘rinbosari F. Ablayarov, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi B. Sindarov, Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta’minlash bo‘limi N.Shodiyev, tarkibiy bo‘linma rahbarlari, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti A. Jalilov</p> |
| 5. | <p>6-band. Tegishli axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini Yoshlar ishlari agentligi so‘roviga asosan Yoshlar yagona elektron platformasiga “Elektron hukumat” tizimining idoralararo platformasi orqali integratsiya qilishni ta’minlash.</p> | 10.10.2025 | <p>Direktor o‘rinbosari F. Ablayarov, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi B. Sindarov</p> |
| 6. | <p>6-band. Yoshlar yagona elektron platformasiga o‘zlarining axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish uchun tegishli infratuzilma yaratish hamda raqamlashtirilgan ma’lumotlar bazalarini shakllantirish choralarini ko‘rish.</p> | 10.12.2025 | <p>Direktor o‘rinbosari F. Ablayarov, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi B. Sindarov, tarkibiy bo‘linmalar Z. Ataxanov, D. Azizova, A. Alimov, M. Amreyeva, E. Xudoyberdiev</p> |
| 7. | <p>7-band, 8.a.-band. “Yoshlar daftari” jamg‘armasidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordamlar bo‘yicha arizalarni taqdim etish, ularni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha qaror qabul qilish bilan bog‘liq barcha</p> | 10.12.2025 | <p>Direktor o‘rinbosari F. Ablayarov, “Yoshlar balansi”ni</p> |

| | | | |
|-----|--|------------------------------|--|
| | ma'muriy tartib-taomillar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda Yoshlar yagona elektron platformasi orqali amalga oshirilishini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | | <p>muvoqlashtirish bo'limi E. Xudoyberdiyev, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi B. Sindarov</p> |
| 8. | <p>8.b.-band. Yoshlar yetakchilari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini mazkur Farmonning 3-bandida ko'rsatilgan asosiy vazifalar asosida qayta ko'rib chiqib, ular faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash inson omilisiz avtomatik tarzda Yoshlar yagona elektron platformasida amalga oshirilishini ta'minlash.</p> | 01.12.2025 | <p>Direktor o'rinbosarlari F. Ablayarov, A. Muminov, Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvoqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limi N.Shodiyev, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi B. Sindarov</p> |
| 9. | <p>8.v.-band. Yoshlar yagona elektron platformasidan foydalanuvchi hududiy, tuman (shahar) bo'linmalari, yoshlar yetakchilari hamda Yoshlar ishlari agentligi tizimidagi boshqa tuzilmalarning shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish hajmlari va chegaralarini belgilash.</p> | 10.11.2025 | <p>Direktor o'rinbosari F. Ablayarov, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi B. Sindarov, Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi S. Xamdamov, Tarkibiy bo'linmalar</p> |
| 10. | <p>9-band. 2026-yildan boshlab har yili Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi to'g'risidagi milliy ma'ruzani e'lon qilish amaliyotini joriy etish.</p> | 2026-yildan boshlab har yili | <p>Direktorning birinchi o'rinbosari D. Kattaxanova, Direktor maslahatchisi A.Xolmaxmatov, Axborot-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi U. Sattarov, Yoshlar muammolarini o'rganish va</p> |

| | | | |
|-----|---|----------------------------|---|
| | | | istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti A. Jalilov, Axborot xizmati N. Abduqodirov, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi B. Sindarov |
| 11. | 9.a.-band. Yoshlar ishlari agentligi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Sport vazirligi bilan birgalikda yoshlarga oid davlat siyosati bo'yicha sotsiologik so'rovlar o'tkazish dasturi va baholash metodologiyasini ishlab chiqish. | 10.10.2025 | Direktorning birinchi o'rinbosari D. Kattaxanova, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti A. Jalilov, Bolalar, xotin-qizlar, ta'limdagi yoshlarni, volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ekologik diplomatiya boshqarmasi Z. Ataxanov, Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'limi D. Azizova |
| 12. | 9.b.-band. Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi to'g'risidagi milliy ma'ruzani tayyorlash uchun zarur statistik ma'lumotlarni olish hamda sotsiologik so'rovlar o'tkazish Yoshlar yagona elektron platformasi orqali amalga oshirilishi bo'yicha reja ishlab chiqish. | 10.10.2025 Reja asosida | Direktor o'rinbosarlari D. Kattaxanova, F. Ablayarov, A. Muminov, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti A. Jalilov, tarkibiy bo'linmalar B. Sindarov, Z. Ataxanov, D. Azizova, |

| | | | |
|------------|--|------------------|--|
| | | | A. Alimov, M. Amreyeva |
| 13. | 9.v.-band. Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi to'g'risida milliy ma'ruza har yili "30-iyun – Yoshlar kuni" arafasida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan e'lon qilib borish. | Har yil iyun oyi | Direktorning birinchi o'rinbosari D. Kattaxanova, Axborot xizmati N. Abduqodirov |
| 14. | 10-band. Yoshlar ishlari agentligi tizimida topshiriqlarni respublikadan mahallagacha yetkazish va nazorat qilish bo'yicha elektron hujjat aylanish tizimi joriy etilsin hamda ish yuritish tartibi to'liq raqamlashtirilgan holda amalga oshirilishi yo'lga qo'yilsin. | 01.12.2025 | Direktor o'rinbosarlari D. Kattaxanova, F. Ablayarov, A. Muminov, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi B. Sindarov, tarkibiy bo'linmalar U. Sattarov, A. Hidoyatov, S. Abdixafizov |
| 15. | Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-noyabrdagi "Yilning eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi" tanlovini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 608-son qaroriga mazkur Farmondan kelib chiqadigan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 01.11.2025 | Direktor o'rinbosari A. Muminov, Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limi N. Shodiyev, tarkibiy bo'linmalar |

Yoshlar ishlari agentligi direktorining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2024-yil 30-oktabrdagi 01-10/169-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi yoshlar yetakchisining namunaviy lavozim yo'riqnomasida:

a) 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4. Yetakchining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyat uchun foydali va umummilliy manfaatlarga xizmat qilishga qaratilgan loyihalarni mahalla darajasida amalga oshirish;

yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning iqtidori va iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, "Besh tashabbus olimpiadasi"ni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish;

mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning tadbirkorlik ko'nikmalari va o'z taqdiri uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish orqali bandligiga ko'maklashish;

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ko'rsatiladigan yordamning ijtimoiy hamkorlik tamoyiliga asoslanishini ta'minlash;

maktablarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari tomonidan taqdim etilgan ro'yxat asosida bitiruvchi sinf o'quvchilarining fan, xorijiy tillar, sport turlari bilan shug'ullanishiga va kasblarni o'rganish istagi bo'lgan o'quvchilarning "Kelajak" markazlari hamda xususiy o'quv markazlarida tahsil olishiga ko'maklashadi;

xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o'quvchilar uchun ularning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi;

mahalla hududidagi murabbiylar, kasb egalari va tadbirkorlar bilan hamkorlikda o'quvchilar uchun ustozlik tizimini yo'lga qo'yadi;

xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o'quvchilarni davlat va nodavlat ta'lim muassasalaridagi to'garaklarga yo'naltiradi;

i) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 20-martdagi PQ-136-son qaroriga asosan futbolni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni eng quyi tizimgacha tushirish hamda mahallalardan boshlab iqtidorli yoshlarni saralab olish (seleksiya) tizimini yaratish maqsadida mahalladagi yoshlar yetakchisiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklanadi:

mahalla yoshlarini ommaviy va professional futbolga qiziqtirish, shuningdek, bu borada turli targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish;

mahallalarda mavjud bo'lgan futbol bo'yicha sport inshootlari hamda boshqa sport maydonchalaridan tizimli va samarali foydalanilishini tashkil etish;

mahallada futbol bo'yicha erkaklar va ayollarning turli yosh toifalari kesimidagi "mahalla terma jamoa"larini shakllantirish hamda ularni tayyorlashni tashkil etish;

mahalla yoshlarining futbol bilan shug'ullanishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilganligini tahlil qilib borish hamda futbolni rivojlantirish bo'yicha sport-ta'lim tashkilotlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish;

mahallalardagi yosh iqtidorli futbolchilarni aniqlash hamda ularni professional futbol ta'lim muassasalariga yo'naltirib borish;

mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish, sport inventarlari bilan ta'minlash va mahalla terma jamoalariga qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga takliflar kiritish;

ii) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son qarori bilan tasdiqlangan "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida nizomning 7-bandiga muvofiq profilaktika inspektori tomonidan tayyorlangan xulosa asosida quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlar ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun axborot tizimi orqali tegishliligi bo'yicha yoshlar yetakchisiga yuboriladi:

ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari;

davlat ko'magiga muhtoj "og'ir" toifadagi yoshlar;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan yoshlar;

qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan yoshlar;

17-bandiga muvofiq yoshlar yetakchisi ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida quyidagilarni amalga oshiradi:

ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilarining bandligiga ko'maklashadi, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning muammolarini o'rganadi hamda ularga ko'rsatiladigan yordam turlaridan samarali foydalanishni tashkil etadi;

davlat ko'magiga muhtoj "og'ir" toifadagi yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashadi hamda profilaktika inspektori bilan birgalikda huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan tizimli ishlaydi, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish choralarini ko'radi;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan yoshlarning turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini o'rganadi, ular bilan yakka tartibda

suhbatlar o'tkazadi, kasbiy layoqatidan kelib chiqib kasb-hunar o'rganishga jalb qilish, sog'lom hayotga qaytarish hamda ushbu salbiy odatga ruju qo'yish omillarini bartaraf etishga ko'maklashadi;

qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan yoshlarning turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini o'rganadi, ular bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazadi, ularni sog'lom hayotga qaytarishga hamda ushbu salbiy odatga ruju qo'yishning omillarini bartaraf etishga ko'maklashadi".

b) 5-bandining ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oliy ma'lumotli”.

2. Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2024-yil 7-iyundagi 01-10/100-son buyrug'iga 4-ilovaning “04 – Mahalladagi yoshlar yetakchisi” bo'limi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

| 04 – Mahalladagi yoshlar yetakchisi | | | |
|-------------------------------------|--|--------------------------------------|--|
| 04-01 | Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar | Zarurat qolmaguncha 1b, 3b, 9b-modda | |
| 04-02 | Yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyat uchun foydali va umummilliy manfaatlarga xizmat qilishga qaratilgan loyihalarni mahalla darajasida amalga oshirishga oid ma'lumotlar | Doimiy 57-modda | |
| 04-03 | Yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning iqtidori va iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, “Besh tashabbus olimpiadasi”ni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilishga oid ma'lumotlar | Doimiy 57-modda | |
| 04-04 | Mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning tadbirkorlik ko'nikmalari va o'z taqdiri uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish orqali bandligiga ko'maklashishga oid ma'lumotlar | Doimiy 57-modda | |
| 04-05 | “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga ko'rsatiladigan yordamning ijtimoiy hamkorlik tamoyiliga asoslanishini ta'minlashga oid ma'lumotlar | Doimiy 57-modda | |
| 04-06 | Ta'lim muassasalari o'rtasida yoshlar, jumladan, umumta'lim maktablarining bitiruvchi sinf o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha hamkorlik qilishga oid ma'lumotlar (10.09.2025-y. PF-163-son Farmon 4-band “b” kichik bandi) | Doimiy 57-modda | |
| 04-07 | Mahallalarda futbolni rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni saralab olish (seleksiya) tizimini yaratishga oid ma'lumotlar (20.03.2024-y. PQ-136-son qaror 2-bandi) | Doimiy 57-modda | |
| 04-08 | Mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda “mahalla yetiligi” shuningdek, boshqa davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik qilishga oid ma'lumotlar (30.11.2024-y. VM-801-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 7-band “v” kichik bandi) | Doimiy 57-modda | |



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



O'ZBEKISTON YOSHLAR
YETAKCHILARINI
QO'LLAB-QUVVATLASH
MARKAZI

“Mahallalarda yoshlar bilan
ishlash tizimi samaradorligini
oshirishga doir
chora-tadbirlar” to'g'risida

O'QUV-QO'LLANMA



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
"Mahallalarda yoshlar bilan ishlash
tizimi samaradorligini oshirishga doir
chora-tadbirlar to'g'risida"gi

PF-163-son Farmoni

MAQSAD

"O'zbekiston - 2030" strategiyasi hamda joriy yilning 30-iyun kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan uchrashuvi doirasida belgilangan ustuvor vazifalarga muvofiq yoshlar bilan ishlash tizimi, jumladan, mahallalardagi yoshlar yetakchilari faoliyati samaradorligini oshirish

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadlari

- (a) yoshlar muammolari bilan **individual va manzilli** ishlash orqali yoshlar yetakchilari faoliyati samaradorligini oshirish;
- (b) yoshlarning **kasbiy qiziqishlarini** barvaqt aniqlash orqali mehnat bozoriga raqobatbardosh kadr sifatida kirib borishini ta'minlash;
- (d) yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish orqali ular ongiga turli **salbiy ta'sir ko'rsatuvchi** g'oyaviy tahdidlarga mahalla darajasida qarshi kurashish;
- (e) yoshlarga oid ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va doimiy ravishda yangilab borish jarayonlarini **raqamlashtirish** orqali yoshlarning ijtimoiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirishga jalb etiladigan mehnat resurslari samaradorligini oshirish.

ASOSIY VAZIFALAR

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimining ustuvor vazifasi - Umummilliy rivojlanish maqsadlariga erishishda yoshlar salohiyatidan unumli foydalanish.

Bunda **"Ulkan maqsadlar, samarali mehnat, oqilona turmush"** g'oyasi asosida yoshlarda ulkan marralarni zabt etishda o'ziga bo'lgan **ishonch va iroda** shakllantiriladi, **bilim va intizom bilan mehnat qilish** ko'nikmalari kuchaytiriladi, ular o'rtasida **sog'lom turmush tarzi** va **o'z axloqi bilan boshqalarga o'rnak bo'lish** kabi hayotiy qadriyatlar ommalashtiriladi

Mahallalardagi yoshlar yetakchilarining asosiy vazifalari

- (a) yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyat uchun foydali va umummilliy manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan loyihalarni mahalla darajasida amalga oshirish;
- (b) yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning iqtidori va iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, "Besh tashabbus olimpiadasi"ni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish;
- (d) mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning tadbirkorlik ko'nikmalari va o'z taqdiri uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish orqali bandligiga ko'maklashish;
- (e) "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ko'rsatiladigan yordamning ijtimoiy hamkorlik tamoyiliga asoslanishini ta'minlash

Mahallalardagi yoshlar yetakchilarining asosiy vazifalariga bog'liq bo'lmagan boshqa vazifa va topshiriqlarni yoshlar yetakchilari zimmasiga yuklash taqiqianadi

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqashtirish bo'yicha respublika komissiyasi yoshlar yetakchilari vazifalariga kirmaydigan ishlarga jalb etilmasligini qat'iy nazoratga oladi

"Mahalla yetiligi" va ta'lim muassasalari o'rtasida yoshlar hamkorlik qilish tizimi

(a) maktablarning **ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari** har oyda sinf rahbari va maktab psixologi hamkorligida xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o'quvchilar hamda bitiruvchi sinf o'quvchilari o'rtasida qo'shimcha fanlar, xorijiy tillar va kasblarni o'rganish, sport turlari bilan shug'ullanish hamda mehnat faoliyatiga qiziqish bildirgan o'quvchilarni aniqlaydi. Ushbu o'quvchilarning ro'yxati shakllantirilib, belgilangan tartibda yoshlar yetakchisi va mahalla raisiga taqdim etiladi;

(b) yoshlar yetakchilari:

1) maktablarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari tomonidan taqdim etilgan ro'yxat asosida bitiruvchi sinf o'quvchilarining fan, xorijiy tillar, sport turlari bilan shug'ullanishiga va kasblarni o'rganish istagi bo'lgan o'quvchilarning "Kelajak" markazlari hamda xususiy o'quv markazlarida tahsil olishiga ko'maklashadi;

2) xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o'quvchilar uchun ularning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi;

3) mahalla hududidagi murabbiylar, kasb egalari va tadbirkorlar bilan hamkorlikda o'quvchilar uchun ustozlik tizimini yo'lga qo'yadi;

4) xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o'quvchilarni davlat va nodavlat ta'lim muassasalaridagi to'garaklarga yo'naltiradi;

(d) hokim yordamchilari mehnat faoliyatini olib borish istagi bo'lgan maktab o'quvchilarini tegishli mahalla hududida joylashgan korxonalariga yo'naltirib, ularning kasb o'rganishiga va kelgusida ishga joylashishiga, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun zarur vositalar bilan ta'minlashga ko'maklashadi;

(e) mahalla raislari:

1) xulq-atvorida muayyan murakkabliklar kuzatilgan o'quvchilarning ota-onalari bilan doimiy muloqot o'rnatadi hamda ularning mas'uliyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

2) ota-onalarga farzandtarbiyasi, ma'naviy-axloqiy qo'llab-quvvatlash va xulq-atvordagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar taqdim etadi;

3) yoshlar bilan doimiy muloqot o'tkazib, ularning kasbiy qiziqishini o'rganadi, mehnat bozoriga raqobatbardosh kadr sifatida kirib borish jarayonida ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib boradi;

4) ishsiz yoshlarni ularning qiziqishidan kelib chiqqan holda mahalladagi tajribali tadbirkorlarga kasb-hunar o'rganish uchun yo'naltiradi, kasbiy o'sishini kuzatib boradi hamda o'zining mustaqil tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga ko'maklashadi;

5) yoshlarning fanlarni o'rganishi, axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi, kitobxonlik, sport bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha tashabbuslar ishlab chiqadi.

“ Ushbu bandeda nazarda tutilgan chora-tadbirlar bo'yicha xarajatlar zarur hollarda belgilangan tartibda "Yoshlar daftari" jamg'armalari hamda mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash jarayoni raqamlashtirish darajasini oshirish

(a) yoshlarning demografik va ijtimoiy holati, bandligi, ta'lim olishiga oid ma'lumotlar asosida **"Yoshlar balansi"**ni shakllantirish;

(b) yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini baholash va uning natijalarini aniqlash;

(d) yoshlarning qiziqishlarini aniqlash bo'yicha sotsiologik so'rovlar o'tkazish, uning natijalarini avtomatik tahlil qiiish;

(e) yoshlarga oid mavjud imtiyozlar, preferensiyalar va imkoniyatlar to'g'risida ma'lumot berish;

(f) shaxsga doir ma'lumotlar bo'yicha amalga oshirilgan so'rovlarning raqamli izlarini saqlash.

Yoshlar ishlari agentligi Yoshlar yagona elektron platformasi **buyurtmachisi** etib belgilandi.

Vazirlik va idoralar

(a) tegishli axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini Yoshlar ishlari agentligi so'roviga asosan **bir oy muddatda** Yoshlar yagona elektron platformasiga "**Elektron hukumat**" tizimining idoralararo platformasi orqali **integratsiya** qilishni ta'minlasin;

(b) **uch oy muddatda Yoshlar yagona elektron platformasiga** o'zlarining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish uchun tegishli infratuzilma yaratish hamda raqamlashtirilgan ma'lumotlar bazalarini shakllantirish choralarini ko'rsin.

“ **Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali integratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirib boradi va zarur texnik choralar ko'radi**

2026-yil 1-fevraldan boshlab "Yoshlar daftari" jamg'armasidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamlar bo'yicha arizalarni taqdim etish, ularni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha ma'muriy tartib-taomillar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda Yoshlar yagona elektron platformasi orqali amalga oshiriladi.

Yoshlar ishlari agentligi:

(a) Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda "Yoshlar daftari" jamg'armasi orqali **ijtimoiy yordamlarni ko'rsatish** tartibini ishlab chiqadi va Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

2026-yildan boshlab har yili Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi to'g'risidagi milliy ma'ruzani e'lon qilish amaliyoti joriy etiladi. Bunda:

(a) Yoshlar ishlari agentligi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Sport vazirligi bilan birgalikda **ikki oy muddatda** yoshlarga oid davlat siyosati bo'yicha sotsiologik so'rovlar o'tkazish dasturi va baholash metodologiyasini ishlab chiqsin;

(b) Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi to'g'risidagi milliy ma'ruzani tayyorlash uchun zarur statistik ma'lumotlarni olish hamda sosiologik so'rovlar o'tkazish Yoshlar yagona elektron platformasi orqali amalga oshirilsin;

(d) Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi to'g'risida milliy ma'ruza har yili **30-iyun «Yoshlar kuni»** arafasida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan e'lon qilib boriladi.

2026-yil 1-yanvarga qadar Yoshlar ishlari agentligi tizimida topshiriqlarni respublikadan mahallagacha yetkazish va nazorat qilish bo'yicha elektron hujjat aylanish tizimi joriy etilsin hamda ish yuritish tartibi to'liq raqamlashtirilgan holda amalga oshirilishi yo'lga qo'yiladi.

Yoshlar ishlari agentligi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda ushbu badda nazarda tutilgan elektron tizimlarning o'z muddatida va sifatli ishga tushirilishi ta'minlaydi.

Ushbu Farmonning 5 va 9-bandlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga old davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

Farmon ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Z. Sa'dullayev belgilanadi.

Farmon ijrosi uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklanadi.